PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SIYOSIY LEGITIMLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARINING TRANSFORMATSIYASI: AMBIVALENT YONDASHUV

Saidbek Xolmatov
Siyosiy fanlar
Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi
Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va
qayta tayyorlash instituti xodimi
email: saidbekxolmatov77@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21923640
Tel:+998908584463

Annotatsiya. Zamaonaviy davrda raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruvida joriy etilishi siyosiy legitimlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Lekin so'nggi yillarda ushbu raqamli texnologiyalarning siyosiy legitimlikni ta'minlash mexanizmlari jadal transformatsiyalashuvni boshdan kechirmoqda. Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonining bir yoqlama emas, balki ambivalent(ikki taraflama) xarakteri yoritib berilgan. Bunda bir tarafdan raqamli texnologiyalar davlat xizmatlariga joriy etilishi orqali inson omilini minimal darajaga tushirish va xizmat tezligini oshirish hamda shaffoflikni ta'minlash orqali davlat apparatiga nisbatan ratsional-huquqiy ishonchni mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, tizimda yuzaga kelib turuvchi texnik nosozliklar, internet sifatining pastligi va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari, xususan biometrik ma'lumotlarning kiberxujumlar orqali ochiq internet manbalarigi sizib chiqishi fuqarolarning butun tizimga nisbatan ishonchsizlik xavfini kuchaytirishi tahlil qilinadi.Tadqiqot so'nggida raqamli texnologiyalardan siyosiy legitimlikni oshirishda samarali foydalanish hamda uning salbiy ta'sirlarini minimallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, siyosiy legitimlik, ambivalentlik, raqamli hukumat, Veber nazariyasi " Ratsional-huquqiy legitimlik" , byurokratiya.

Abstract. In the contemporary era, the introduction of digital technologies into public administration has become one of the key factors in ensuring political legitimacy. However, in recent years, the mechanisms through which digital technologies contribute to political legitimacy have undergone rapid transformation. This article highlights the ambivalent nature of the digitalization process rather than viewing it as a one-sided phenomenon. On the one hand, the implementation of digital technologies in public services minimizes the human factor, increases the speed of service delivery, and enhances transparency, thereby strengthening rational-legal trust in the state apparatus. On the other hand, technical failures within the system, poor internet quality, and the leakage of citizens' personal data—particularly biometric data—into open internet sources through cyberattacks intensify the risk of public distrust toward the entire system. The study concludes by proposing practical recommendations for the effective use of digital technologies in enhancing political legitimacy and for minimizing their negative consequences.

Keywords: digital technologies, political legitimacy, ambivalence, digital government, Weberian theory, rational-legal legitimacy, bureaucracy.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragida davlat va fuqaro o'rtasidagi an'anaviy ijtimoiy shartnoma raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari ta'sirida jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamlashtirish bugungi kunda shunchaki davlat organlarining faoliyatini soddalashtiruvchi texnik qurol yoki qulaylik yaratuvchi instrument emas, balki siyosiy hokimyatni qonuniyligini ya'ni siyosiy legitimlikni shakllantiruvchi va ba'zan uni xavf ostida qolishiga sabab bo'luvchi asosiy omil hisoblanadi.

An'anaviy siyosiy legitimlikka ko'ra, qonun ustuvorligi, saylov jarayonlari, konstitutsiyaviy me'yorlar hamda mafkuraviy tamoyillar davlat hokimiyatining qonuniyligini ta'minlovchi asosiy me'zonlar hisoblanadi. Biroq raqamli jamiyat shakllanishi sharoitida fuqaroning davlat hokimiyatiga bo'lgan ratsional ishonch mezonlari keskin transformatsiyaga uchradi. Zamonaviy fuqaro uchun davlatning legitimligi nafaqat uning qonuniy saylangani yoki deklarativ bayonotlari bilan, balki raqamli makonda ko'rsatayotgan xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi hamda shaxsiy ma'lumotlarni qanchalik daxlsiz saqlay olish salohiyati bilan belgilanmoqda. Ushbu transformatsiya jarayoni dialektik xarakterga ega hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida ambivalentlikni ya'ni ikki va undan ortiq qarama-qarshi oqibatlarni bir vaqtda namoyon etadi:

Bir tomondan, davlat xizmatlarining elektron formatga o'tkazilishi masofadan turib murojat qilish imkoniyatini yaratadi, inson omilini kamaytiradi hamda ehtimoliy korrupsion holatlarni minimal darajaga tushiradi. Bu holat fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Ikkinchi tomondan esa, Shaxsiy va biometrik ma'lumotlarni bitta ma'lumotlar bazasida to'planishi ushbu ma'lumotlarga nisbatan kiberhujumlarni yuzaga kelish ehtimolini paydo qiladi. Shuningdek axborotning sizib chiqishi va internet tarmoqlaridagi nosozliklar fuqarolar o'rtasida ma'lum bir shaxsga emas balki butun raqamli davlat apparatiga va uning boshqaruv layoqatiga bo'lgan ishonchiga keskin putur yetkazadi[1]. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotning **asosiy maqsadi** – raqamli texnologiyalarning siyosiy legitimlikka ta'sir ko'rsatish mexanizmlari transformatsiyasini va ushbu jarayonning ambivalent xarakterini nazariy hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot konseptual-qiyosiy tahlil (conceptual-comparative analysis) hamda tizimli-institutsional yondashuv metodologiyasiga asoslanadi. Nazariy-konseptual poydevor Maks Veberning klassik legitimlik nazariyalari. Siyosiy hokimiyatning legitimligi va davlat apparati faoliyatining samaradorligini o'rganishda nemis sotsiologi va siyosatshunosi Maks Veberning Ratsional-huquqiy legitimlik (Rational-legal authority) hamda Klassik byurokratiya nazariyasi fundamental ilmiy poydevor vazifasini o'taydi. Veber konseptsiyasiga ko'ra, zamonaviy jamiyatlarda davlatning qonuniyligi shaxsiy xarizma yoki an'anaviy dogmalarga emas, balki rasmiy belgilangan huquqiy normalarga, protseduralarga hamda xolis va iyerarxik byurokratik apparatga tayanadi[2]. Maks Veber o'zining byurokratik boshqaruv modelida quyidagi asosiy tamoyillarni sanab o'tadi:

1. Boshqaruv xodimlarning subyektiv qarashlari, his-tuyg‘ulari yoki shaxsiy simpatiyalariga emas, faqat xolis qoidalarga asoslanishi lozim;

2. Qoidalarning universalligi va aniqligi: Har bir fuqaro uchun tartib-taomillar va mezonlar bir xil darajada amal qilishi shart;

3. Yozma hujjatlashtirish: Barcha qarorlar, arxivlar va harakatlar rasmiy hujjatlar (fayllar) orqali qayd etib borilishi zarur.

Bugungi davrdagi raqamli transformatsiyalar Veber o’z ilgari surgan nazariyalarning yuqori cho’qqisi sifatida keltirish mumkin. Chunki an’anaviy byurokratik apparatda inson omili (mansabdor shaxs) mavjud bo’lgani sababli subyektivlik, korrupsiya va xolislikning buzilishi xatarlari har doim saqlanib qolgan. Raqamli platformalarda esa qaror qabul qilish jarayoni aksariyat hollarda insondan dasturiy algoritmlarga o’tkaziladi. Algoritm fuqaroning ijtimoiy kelib chiqishi, tanish-bilishi yoki shaxsiy munosabatidan qat’i nazar, kiritilgan ma’lumotlarni faqat belgilangan qoida va kodeks doirasida qayta ishlaydi[3]. Bu esa Veber ta’kidlagan "xolis va shaxssiz boshqaruv" tamoyilining eng absolyut ko’rinishidir. Shuningdek, an’anaviy qog‘oz fayllar raqamli ma’lumotlar bazalariga transformatsiyalanib, axborotning sifatli holatda saqlanishini ta’minlaydi. Raqamlashtirish jarayoni siyosiy legitimlik mexanizmida mas’uliyatning ko’chishi (*shift of responsibility*) hodisasini yuzaga keltirdi. An’anaviy va raqamli davlatchilik o’rtasidagi fundamental farqni quyidagi jadval orqali ko’rish mumkin:

Tahlil mezonlari	An’anaviy hukumat (Veber modelida)	Raqamli hukumat (Algoritmik modelda)
Muloqot formati	Fuqaro va mansabdor shaxs o’rtasidagi bevosita (yuzma-yuz) muloqot	Fuqaro va raqamli interfeys (dastur, portal) o’rtasidagi muloqot
Qaror qabul qiluvchi	Inson (byurokrat, xodim)	Algoritm, avtomatlashtirilgan dasturiy kod
Mas’uliyat subyekti	Muayyan mansabdor shaxs (xodimning shaxsiy javobgarligi)	Butun bir dasturiy va davlat raqamli tizimi
Xatolik oqibati	Xatolik yuz bersa, ayb muayyan xodimga yuklanadi	Xatolik yuz bersa, fuqaro butun davlat apparatini layoqatsiz deb biladi

1-jadval

Ushbu jadvaldan ko’rinib turibdiki, an’anaviy tizimda fuqaro davlat xizmatidan norozi bo’lsa, o’zi muloqot qilgan muayyan mansabdor shaxsni ayblaydi. Bu holat butun davlatning siyosiy legitimligiga jiddiy putur yetkazmaydi. Raqamli hukumatda esa fuqaro shaxs bilan emas, "Tizim" bilan muloqotga kirishadi. Tizimda texnik nosozlik, arizalarning qolib ketishi, serverlar uzilishi yoki ma’lumotlar sizib chiqishi yuz bersa, fuqaro buni alohida bir shaxsning emas, butun davlat apparati va uning boshqaruv qobiliyati inqirozi sifatida qabul qiladi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning siyosiy legitimlikka ambivalent ta’sirini va uning mexanizmlarini tadqiq etishda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Qiyosiy-institutsional tahlil (Comparative Institutional Analysis): An’anaviy "vebercha" byurokratiya va zamonaviy raqamli hukumat modellarining qaror qabul qilish hamda mas’uliyatni taqsimlash mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv (Systems Approach): Raqamli texnologiyalar davlat va fuqaro o’rtasidagi ijtimoiy shartnomaning yaxlit elementlari hamda uning siyosiy barqarorlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillari sifatida o’rganildi.

Dialektik va ambivalent tahlil: Raqamlashtirishning ijobiy (tezkorlik, shaffoflik) va salbiy (kiberxavfsizlik tahdidlari, texnik nosozliklar) qutblari bir vaqtning o’zida namoyon bo’luvchi dialektik jarayon sifatida tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot va tahlillar natijasida raqamli texnologiyalarning siyosiy legitimlikka ta’siri ikkita qarama-qarshi (ambivalent) mexanizm orqali namoyon bo’lishi aniqlandi:

1. Siyosiy legitimlikni mustahkamlovchi ijobiy mexanizmlar

Raqamli platformalarning joriy etilishi davlat va fuqaro o’rtasidagi munosabatlarni ratsional asosda shakllantiradi[4]. Shuningdek davlatning ijtimoiy legitimligini oshiruvchi quyidagi asosiy mexanizmlarni yuzaga keltirdi:

Ortiqcha xarajatlar va ovoragarchilikning keskin kamayishi: An’anaviy byurokratiyadagi ko’p bosqichli hujjatbozlik, navbatlar va idoralararo sarsonliklarning bartaraf etilishi fuqaroning davlat apparatiga bo’lgan ratsional bahosini ijobiy tomonga o’zgartirdi. Masofaviy xizmat ko’rsatish va elektron identifikasiya tizimlarining yo’lga qo’yilishi fuqarolarda davlatning zamonaviy va samarali boshqaruv qobiliyatiga bo’lgan ishonchini oshirmoqda.

Inson omilining cheklanishi va ehtimoliy korrupsiyaning oldini olinishi. Davlat xizmatlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi muayyan mansabdor shaxsning fuqaro bilan bevosita aloqasini cheklaydi, tamagirlik yoki shaxsiy simpatiya ehtimolini minimumga tushiradi. Qarorlarning shaffof va standartlashtirilgan qoidalar bo’yicha qabul qilinishi davlatning "ratsional-huquqiy" legitimlik tamoyiliga to’liq mos keladi.

Ochiqlik va nazorat imkoniyatining kengayishi: Raqamli texnologiyalar davlat resurslarining taqsimlanishi, moliyaviy oqimlar hamda davlat xaridlari ustidan jamoatchilik nazoratini o’rnatish imkoniyatini yaratdi. Bu esa fuqarolarda davlat qarorlarining adolatli va ochiq ekanligiga bo’lgan ijtimoiy rozilikni (*input legitimacy*) shakllantiradi.

2. Siyosiy legitimlikni susaytiruvchi va inqirozga olib keluvchi salbiy mexanizmlar

Raqamli transformatsiya faqatgina samaradorlik bilan cheklanmaydi[5]. U noto’g‘ri boshqarilgan yoki xavfsizlik ta’minlanmagan taqdirda fuqarolarning davlatga bo’lgan ishonchini ildizidan yemiruvchi jiddiy xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda:

Davlat fuqarolardan ularning biometrik va shaxsiy ma’lumotlarini markazlashgan bazalarda to’plash vakolatini o’ziga olar ekan, uning evaziga ushbu ma’lumotlar daxlsizligini kafolatlashi shart hisoblanadi. Davlat tomonidan to’plangan shaxsiy va biometrik ma’lumotlarning kiberhujumlar qarshisida himoyasiz qolishi fuqarolarda chuqur xavfsizlik va institutsional ishonch inqirozini keltirib chiqaradi. Natijada, fuqaro davlatni o’zining raqamli daxlsizligini ta’minlashga layoqatsiz deb biladi.

Bu holat davlatning qonuniy vakolatlariga bo'lgan subyektiv munosabatni keskin salbiy tomonga o'zgartiradi.

Raqamli hukumat platformalaridagi tez-tez kuzatiladigan texnik nosozliklar, serverlarning haddan tashqari yuqori yuklama bilan ishlash holatga tushib qolishi hamda internet tezligi va sifatining pastligi fuqaro bilan davlat o'rtasidagi uzilishlarni keltirib chiqaradi. Avvalroq ta'kidlanganidek, mas'uliyat shaxsdan "Tizim"ga ko'chgani sababli, har qanday texnik to'siq yoki nosozlik fuqaro tomonidan muayyan IT-mutaxassisning xatosi emas, balki "davlat raqamli tizimining ishlamayotgani" va davlat apparatining samarasizligi sifatida talqin qilinadi.

Aholining barcha qatlamlari (ayniqsa, qishloq joylardagi, keksa yoshdagi yoki raqamli savodxonligi past bo'lgan fuqarolar) raqamli texnologiyalardan teng foydalanish imkoniyatiga ega emasligi ularning davlat xizmatlaridan va qaror qabul qilish jarayonlaridan uzilib qolishiga olib kelish ehtimolini yuzaga keltiradi. Bu esa jamiyatda adolatsizlik hissini uyg'otadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruviga integratsiyalashuvi siyosiy legitimlik tushunchasini shunchaki shaffoflashtirib qolmay, uning ichki dinamikasi va psixologik-institutsional poydevorini tubdan o'zgartirmoqda. Maks Veber o'zining klassik nazariyasida modernizatsiyalashgan davlatning legitimligini "ratsional-huquqiy ustunlik" bilan bog'lagan va uning kafolati sifatida yozma hujjatlarga, belgilangan tartib-taomillarga tayanuvchi xolis byurokratiyani ko'rsatgan edi. Natijalar bo'limida ko'rsatilganidek, raqamli hukumat platformalari inson omilining subyektiv ta'sirini minimallashtirib, Veber idealini amaliyotga tatbiq etdi.

An'anaviy va raqamli byurokratiya o'rtasidagi muhokama qilinishi lozim bo'lgan asosiy farq shundaki, klassik byurokratiyada fuqaro va davlat o'rtasidagi muloqotda ijtimoiy munosabatlar va subyektiv interpretatsiya (talqin) elementlari mavjud. Muayyan mansabdor shaxs qonun va mezonlarni subyektiv tarzda qo'llashi, fuqaroning individual holatiga qarab qarorni kechiktirishi yoki o'zgartirishi mumkin edi. Raqamli algoritmik tizimlarda esa bu kabi "subyektiv bo'shliqlar" mutlaqo yopiladi. Biroq ilmiy muhokama shuni ko'rsatadiki, insoniy omilning to'liq siqib chiqarilishi yangi turdagi "algoritmik sovuqqonlik" (*algorithmic rigidity*) muammosini keltirib chiqaradi[6]. Dasturiy algoritm hayotiy istisnolarni, insoniy va sotsial omillarni hisobga olmaydi. Agar fuqaroning hujjatida yoki ma'lumotlarida arzimas texnik xatolik bo'lsa, tizim arizani avtomatik rad etadi. Natijada, Veber tomonidan adolat va xolislik manbai deb qaralgan "ratsional-huquqiy qoidalar" raqamli makonda ratsional lekin moslashuvchan bo'lmagan to'siqqa aylanadi. Bu ham fuqaroning davlat apparatidan noroziligiga olib keladi.

Tadqiqotning eng muhim nazariy xulosalaridan biri — bu mas'uliyat subyektining mansabdor shaxsdan "butun bir raqamli Tizimga" ko'chishidir. An'anaviy davlat apparatida fuqaro xatolik, korrupsiya yoki ortiqcha ovvoragarchilikka duch kelganda, e'tiroz to'g'ridan-to'g'ri muayyan xodimga yoki bo'limga qaratilgan. Bu holatda davlatning umumiy siyosiy legitimligiga zarba minimal darajada bo'lgan, chunki inqiroz individual xarakterga ega edi.

Raqamli hukumatda esa fuqaro portal interfeysida arizasining rad etilgani yoki to'xtab qolganini ko'radi, biroq uning ortida qanday texnik jarayon, algoritmik xatolik yoki server uzilishi yotganini tushunmaydi. Bu esa siyosiy psixologiya nuqtai nazaridan bir qancha jiddiy oqibatlarni yuzaga

keltirmoqda. Misol uchun tizimda yuz bergan bitta texnik nosozlik yoki ma’lumotlar bazasidagi xatolik fuqaro tomonidan "davlat elektron boshqaruvni ta’minlay olmayapti" deb baholaydi. Ya’ni, individual xatolik darhol tizimli va institutsional inqirozga transformatsiyalanadi. Bundan tashqari tizim xatoga yo’l qo’yganda fuqaro bevosita shikoyat qilishi va muammoni joyida hal eta oladigan "mas’ul shaxs"ni topa olmaydi. Bir idora mas’uliyatni ikkinchisiga yoki IT-operatordan iborat uchinchi tomonga yuklaydi. Bu esa ratsional-huquqiy legitimlikning asosi bo’lgan mas’uliyat va javobgarlik tamoyiliga putur yetkazadi.

Muhokamaning eng dolzarb qismi raqamlashtirishning ambivalentlik, ya’ni ikki yo’qlama xarakteri bilan bog‘liq. Klassik siyosiy falsafada (T. Gobbs, J. Lokk) fuqaro o’zining ayrim huquqlarini davlatga topshirishi evaziga davlatdan jismoniy va mulkiy xavfsizlik kafolatini talab qilgan[7]. Raqamli jamiyatda esa ushbu "Ijtimoiy shartnoma" ning mazmuni kengayib, unga "Raqamli va biometrik xavfsizlik kafolati" qo’shildi.

Fuqaro davlat xizmatlaridan masofadan turib va tezkor foydalanish evaziga o’zining eng maxfiy — shaxsiy, moliyaviy va biometrik ma’lumotlarini markazlashgan davlat bazalariga ko’ngilli ravishda topshiradi. Biroq bu borada davlat zimmasiga yuklanadigan daxlsizlik va kiberxavfsizlik mas’uliyati amaliyotda har doim ham to’liq ta’minlanmayotgani raqamli legitimlikning eng zaif nuqtasiga aylanmoqda. Masalan, Hindistonda 1,1 milliarddan ortiq aholining biometrik ma’lumotlarini jamlagan Aadhaar tizimidagi kiberxavfsizlik zaifliklari (2018 va 2023-yillardagi sizib chiqishlar) natijasida yuz millionlab fuqarolarning shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlari "Darknet" tarmog‘ida sotuvga qo’yilgan edi. Xuddi shunday, 2022-yilda Xitoyning Shanhay politsiyasi ma’lumotlar bazasining buzib kirilishi tarixdagi eng yirik kiberfajialardan biriga aylanib, 1 milliardga yaqin fuqaroning manzillari, ID kartalari va politsiya reyestridagi maxfiy ma’lumotlari (23 Terabayt hajmda) ochiq manbalarga tarqalib ketdi. Ushbu hodisalar nafaqat fuqarolarga nisbatan ommaviy moliyaviy firibgarliklar hamda shaxsiy daxlsizlikning poymol qilinishiga olib keldi, balki hattoki eng yirik va texnologik rivojlangan davlatlar ham markazlashgan raqamli infratuzilma xavfsizligini 100 foiz kafolatlay olmasligini ko’rsatdi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiyaning zamonaviy davlatchilikda siyosiy legitimlikni shakllantirish mexanizmlarini tubdan qayta belgilayotganini ko’rsatadi. Maks Veberning ratsional-huquqiy legitimlik nazariyasi prizmasidan qaraganda, raqamli hukumat platformalari xolislik va standartlashtirish tamoyillarini eng yuqori nuqtaga olib chiqadi.Inson omili bilan bog‘liq korrupsion xatarlar hamda subyektivlikni keskin kamaytirdi. Biroq bu jarayon o’zida chuqur ambivalent xarakterni namoyon etadi. Inson omilining siqib chiqarilishi moslashuvchan bo’lmagan "algoritmik sovuqqonlik"ni keltirib chiqaradi. Mas’uliyat subyektining individual mansabdor shaxsdan yaxlit "tizim"ga ko’chishi har qanday texnik nosozlik yoki ma’lumotlar sizib chiqishini to’g‘ridan-to’g‘ri davlat apparatining institutsional inqirozi sifatida talqin qilinishiga olib keldi.

Raqamli jamiyat sharoitida klassik ijtimoiy shartnoma mazmuni kengayib, unga raqamli va biometrik daxlsizlik kafolati qo’shildi. Global amaliyotdagi yirik kiberfojealar va mahalliy darajadagi infratuzilmaviy uzilishlar shuni ko’rsatdiki, davlat tomonidan to’plangan shaxsiy ma’lumotlarning kiberhujumlar qarshisida himoyasiz qolishi fuqarolarning ratsional-huquqiy ishonchini ildizidan yemiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shunday qilib, zamonaviy davlatning siyosiy legitimligi nafaqat

raqamli xizmatlarning tezkorligi va qulayligi, balki ushbu xizmatlarning xavfsizligi, algoritmik adolatliligi hamda ma’lumotlar daxlsizligining institutsional jihatdan qanchalik kafolatlangani bilan belgilanadi.

Ushbu ambivalent xatarlarni minimallashtirish va raqamli texnologiyalardan siyosiy legitimlikni mustahkamlovchi barqaror omil sifatida foydalanish uchun bir qator institutsional va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, "algoritmik sovuqqonlik" muammosini bartaraf etish maqsadida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlarida insoniy va sotsial omillarni inobatga oluvchi apellyatsiya yoki shikoyatlar bo’limi mexanizmlarni joriy etish zarur. Ya’ni, tizim tomonidan arizasi avtomatik rad etilgan fuqaroga muammoni zudlik bilan qayta ko’rib chiquvchi va texnik xatoliklarni insoniy muloqot orqali tuzatuvchi imkoniyati taqdim etilishi lozim.

Shuningdek, mas’uliyatning anonimlashuviga barham berish uchun raqamli xizmatlar infratuzilmasida mas’uliyat va javobgarlik zanjirini huquqiy jihatdan aniq belgilab olish talab etiladi. Har bir elektron xizmat va ma’lumotlar bazasi bo’yicha texnik nosozliklar va kiberxavfsizlik uchun javobgar bo’lgan institutsional subyektlar hamda ularning fuqarolar oldidagi huquqiy va kompensatsiyaviy mas’uliyati qonun doirasida belgilanishi shart. Bunga parallel ravishda, markazlashgan ma’lumotlar bazalarini kiberhujumlardan davlat darajasida himoya qilish uchun ma’lumotlarni doimiy mustaqil kiber-auditdan o’tkazish mexanizmlarini yo’lga qo’yishlozim. Bundan tashqari raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali hududlar o’rtasidagi "raqamli tengsizlik"ni qisqartirish siyosiy barqarorlik va ratsional-huquqiy legitimlikni saqlab qolishning ustuvor sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Iminov A., Isaqov A., Kamolov S. H. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA KIBER JINOYATLARNING SIYOSIY BARQARORLIKKA DESTRUKTIV TA’SIRI //Scientific Conference Open Proceedings. – 2026. – T. 3. – №. 2. – C. 80-86.
2. Beetham, D. (1991). Max Weber and the legitimacy of the modern state. Analyse & Kritik, 13(1), 34-45.
3. Mirzaaxmedov K. SIYOSIY HOKIMIYAT LEGALLIGI VA LEGITIMLIGI TRANSFORMATSIYASI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 376-382.
4. O’G‘Li A. A. V. et al. SIYOSIY ISHTIROKNI OSHIRISHDA DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI HAMKORLIGINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2026. – Т. 4. – №. 3. – С. 166-172.
5. VA D. X. M. U. Y. G. U., AMALIYOTIGA U. G. B. O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025,[1/2] ISSN 2181-7324.
6. Taylor, L. (2021). Public Actors Without Public Values: Legitimacy, Domination and the Regulation of the Technology Sector: L. Taylor. Philosophy & technology, 34(4), 897-922.
7. Barisione, M., & Michailidou, A. (Eds.). (2017). Social media and European politics: Rethinking power and legitimacy in the digital era. Springer.
8. Peter, F. (2010). Political legitimacy.